O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

B U Y R U Q

2023-yil 28-avgust *162-son* *Toshkent viloyati*

Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimini takomillashtirish va uning huzurida Respublika agroxizmatlar markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-6159-son Farmoni, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-4975-son Qarori hamda 2023-yil 7-iyuldagi “Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-216-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-6159-son Farmonning 6-bandiga muvofiq, ilmga asoslangan axborot va maslahat xizmatlarining yaxlit tizimini joriy qilish maqsadida Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi (keyingi o‘rinlarda – Milliy markaz) huzurida Respublika agroxizmatlar markazi tashkil etilsin.

2. Quyidagilar Respublika agroxizmatlar markazining asosiy vazifalari hisoblanadi:

ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash, qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi (AKIS) konsepsiyasini amalga oshirish orqali faoliyat samaradorligini ta’minlash maqsadida tayyor ilmiy ishlanmalarni, ekinlarning yangi yuqori hosildor navlari, tejamkor agrotexnologiyalar, hududlarning tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda yerga ishlov berish usullari, sug‘orish me’yori va muddatlari, qishloq xo‘jaligi ekinlarining yuqori sifatli urug‘liklari, ekin turlari navlari bo‘yicha yaratilgan samarali agrotexnik usullarni ishlab chiqarishga joriy qilish uchun agrosanoat klasterlari, kooperativlar, fermer va dehqon xo‘jaliklari tomorqa yer egalari bilan yaqindan manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

qishloq xo‘jaligi sohasida ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ilg‘or tajriba va zamonaviy yuqori samarali va resurstejamkor texnologiyalar bo‘yicha tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar barcha turdagi qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiruvchilarning malakasini oshirish borasida tizimli faoliyatni amalga oshirish;

yetakchi olimlar va soha mutaxassislarini jalb qilgan holda hududlarning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha ehtiyojlarni hisobga olib, mutaxassislar malakasini oshirish kurslarini, fermer va dehqon xo‘jaliklari, agrosanoat klasterlari, kooperativlar, tomorqa yer egalari uchun seminar va treninglarni tashkil qilish;

agrosanoat majmui tizimiga kiruvchi tashkilotlar va idoralar bilan hamkorlikda qishloq xo‘jaligida bilimlar va innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha agroxizmatlar ko‘rsatishni tashkil qilish, ilmiy tashkilotlar, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar ko‘rsatish sohalarida ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash va zaruriy tadbirlarni amalga oshirish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, qo‘shimcha qiymat yaratish borasida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga ilmiy tavsiya va axborot-maslahat xizmatlarini ko‘rsatish.

3. Belgilansinki:

Respublika agroxizmatlar markazi Milliy markaz huzuridagi davlat muassasasi hisoblanadi;

Respublika agroxizmatlar markazi direktori lavozimiga ko‘ra Milliy markaz direktori o‘rinbosari hisoblanib, vazirlik tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-sonli Farmoni 16-bandi to‘rtinchi xatboshi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-iyundagi “Ma’muriy islohotlar doirasida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-90-sonli Farmoni talablariga asosan, istisno tariqasida Milliy markaz direktorining o‘rinbosari va Respublika agroxizmatlar markazi direktori lavozimlari bir shaxsga yuklatilishi tartibi joriy qilinsin.

Bunda, Milliy markaz direktor o‘rinbosari-Respublika agroxizmatlar markazi direktoriga normativlarga muvofiq belgilanadigan ustamalarga qo‘shimcha ravishda Milliy markazning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan lavozim maoshiga nisbatan har oylik 20 foiz ustama to‘lanishi ta’minlansin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar agroxizmatlar markazlarining mavjud 156 ta shtat birligi hamda Milliy markaz tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari qoshidagi ilmiy-tajriba stansiyalarining 49 ta yuriskonsult lavozimidagi shtat birliklari moliyalashtirishning amaldagi tartibini saqlab qolgan holda Respublika agroxizmatlar markaziga o‘tkazilsin.

Amaldagi shtatlar jadvaliga tegishli tartibda o‘zgartirishlar kiritish choralari ko‘rilsin.

5. Shunday tartib joriy etilsinki unga ko‘ra:

Respublika agroxizmatlar markaziga o‘tkazilayotgan shtat birliklari tegishliligicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarning tuman (shahar)lar sonidan kelib chiqib, har bir tumanga axborot-maslahat xizmati bo‘yicha 1 ta shtat birligida xodimlar biriktiriladi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar agroxizmatlar markazlari o‘z xududlarida joylashgan tuman (shahar)ga biriktirilgan xodimlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

Hududiy agroxizmatlar markazlarida Respublika agroxizmatlar markazining yagona markazlashgan buxgalteriya hisobi, inson resurslarini boshqarish, yuridik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish xizmatlari amalga oshiriladi.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar agroxizmatlar markazlaridagi boshqaruv xodimlarni shtat birliklaridan samarali foydalanish hamda ulardan bevosita tumanlarda mulkchilik shaklidan qat’iy nazar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga ilmiy asoslangan tavsiya va maslahatlar berish tizimini joriy qilish maqsadida Hududiy agroxizmatlar markazlari shtat jadvallaridagi boshqaruv apparatining yuqorida vazifalari ko‘rsatilgan lavozimlari axborot-maslahat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq lavozimlarga o‘zgartirilsin.

7. Belgilab qo‘yilsinki:

Qishloq xo‘jaligi vazirligi va “Agrobank” ATBning 2023-yil 10- avgustdagi “Ilmiy axborot va maslahatlar asosida agroxizmatlar tizimini joriy qilish va uning faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qo‘shma qarori talablariga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo va Namangan viloyatlari hududiy agroxizmatlar markazlari va barcha tumanlardagi agroxizmatlar markazlari “Agrobank” ATBning xususiy tadbirkorlik sub’ektlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Agromarkaz”larda o‘z faoliyatlarini o‘rnatilgan tartibda o‘zaro manfaatli hamkorlik shartnomalari asosida amalga oshiradi;

Agroxizmatlar tizimida faoliyat yuritadigan xodimlarning axborot-maslahat xizmatlarini samarali yuritishlari uchun o‘quv kurslarida malaka oshirishlarini tashkil qilish va zarur asbob-uskunalar xaridi hamda KPI tizimida faoliyatni baholash yakunlari asosida moddiy rag‘batlantirishga mablag‘lar ta’minoti Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish loyihasi tomonidan moliyalashtiriladi.

8. Quyidagilar:

Milliy markazning tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

Respublika agroxizmatlar markazining tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Hududiy agroxizmatlar markazining namunaviy tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

Ilmiy-tadqiqot institutlarining tuzilmalari 4.1-4.12-ilovalarga muvofiq;

Ilmiy tajriba stansiyalarining namunaviy tuzilmasi 5-ilovaga muvofiq;

Milliy markazining yangi tahrirdagi ustavi 6-ilovaga muvofiq;

Respublika agroxizmatlar markazining ustavi 7-ilovaga muvofiq;

Hududiy agroxizmatlar markazining yangi tahrirdagi ustavi 8-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar agroxizmatlar markazlari balanslaridagi avtotransport vositalarining qayta taqsimlanishi 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Milliy markaz (Turayev) bir oy muddatda:

yillik xarajatlar smetasi va shtatlar jadvaliga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini;

Respublika agroxizmatlar markazini qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini, bunda ushbu masala yuzasidan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda tegishli Davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilinishini va qonunchilikda belgilangan tartibda soliq va statistika organlarida hisobga qo‘yilishini ta’minlasin.

10. Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani, A.Yassaviy MFY, Sharof Rashidov ko‘chasi 1-uy manzilida joylashgan Toshkent viloyati agroxizmatlar markazining balansidagi ma’muriy va yordamchi binolar hamda barcha moddiy texnika bazasi to‘liq yangidan tashkil etilayotgan Respublika agroxizmatlar markazi balansiga beg‘araz o‘tkazilsin va bunda amaldagi qonunchilik talablariga rioya etish inobatga olinsin.

Milliy markaz (Turayev), Toshkent viloyati agroxizmatlar markazi (Qurbanov) mazkur bino bo‘yicha topshirish-qabul qilish ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi, buxgalteriya hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

11. Vazir o‘rinbosari A.Shukurov, Milliy markaz (Turayev):

Hududiy agroxizmatlar markazlarining balansidagi bino-inshootlar hamda moddiy-texnik bazasini tizim tashkilotlari balansiga beg‘araz o‘tkazish yuzasidan Vazirlikning tegishli buyruq loyihasini tasdiqqa kiritilishini ta’minlasin;

Milliy markaz tizimidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar agroxizmatlar markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari hamda ilmiy-tajriba stansiyalari rahbarlari bilan birgalikda;

o‘n kun muddatda mazkur buyruq bilan tasdiqlangan tegishli tuzilmalarda belgilangan shtat birliklari doirasida shtat jadvalarini ishlab chiqib, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazsin;

shtat birliklari soni qisqargan xodimlar bo‘yicha ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishi masalasi yuzasidan mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda kasaba uyushmasi qo‘mitasining oldindan roziligi olinishini ta’minlasin;

Hududiy agroxizmatlar markazlari direktorlariga nisbatan vazirlikning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi (Saidova) hamda boshqa xodimlarga nisbatan Milliy markaz (Turayev) tomonidan (shtat birliklari soni qisqargan xodimlarga mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy

hujjatlarga muvofiq xodimlar soni (shtati) qisqarganligi munosabati bilan kelgusida ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilinishi haqida uch kun muddatda ogohlantirish berilishini ta'minlasinlar;

shtat birliklari soni qisqargan xodimlar bo'yicha har bir xodimning kasbi, mutaxassisligi, malakasi va mehnat haqi miqdorini ko'rsatgan holda, bo'lajak ishdan ozod qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni mahalliy mehnat organiga ma'lum qilinishini;

shtat birliklari qisqartirilayotgan xodimlar bilan munosabatlarda mehnat qonunchiligi talablariga qat'iy amal qilinishi hamda xodimlarning mehnat huquqlari buzilishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlasin.

Kasaba uyushmalari qo'mitasi bilan birgalikda shtat birliklari qisqartirilgan xodimlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish choralarini ko'rsin.

shtat birliklari qisqartirilayotgan xodimlar bilan munosabatlarda mehnat qonunchiligi talablariga qat'iy amal qilinishi hamda xodimlarning mehnat huquqlari buzilishiga yo'l qo'yilmasligini;

bir oy muddatda Respublika agroxizmatlar markazi va uning tizimini malakali mutaxassislar bilan butlash hamda ularning funksional vazifalarini ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlasin, bunda amalga oshiriladigan ishlarni Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi (Saidova) tomonidan nazoratga olinishi belgilab qo'yilsin;

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi (Norqobilov), O'simliklar karantini va himoyasi agentligi (Ergashev) hamda ularning joylardagi tashkilotlari va muassasalarining Hududiy agroxizmat markazlari va tumanlarga axborot-maslahat xizmat ko'rsatish uchun biriktirilgan mutaxassislar bilan birgalikda uzviy hamkorlikdagi faoliyatini tizimli tashkil etilishini ta'minlasin.

12. Vazir o'rinbosari A.Shukurovga, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi (Akramov)ga qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan investitsion va grant loyihalari faoliyati yakunlanganda ularning foydalanuvida bo'lgan avtotransport va ofis texnikalari hamda jihozlari qoida tariqasida ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari hamda agroxizmatlar tizimiga taqsimlanishi ko'zda tutilsin.

13. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Qishloq xo'jaligi vazirligining 2021-yil 14-apreldagi 85-sonli buyrug'ining 1-bandi hamda 2023-yil 31-yanvardagi 19-sonli buyrug'ining 7-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.


14. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir **A. Voitov**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI
DEVONXONA

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023 yil “ 28 ” 08
162-son buyrug‘iga
1 - ilova


O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi xuzuridagi
Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi boshqaruv apparatining
TUZILMASI



Xodimlarning umumiy cheklangan soni (yordamchi xodimlardan tashqari) – 41 nafar.
Xizmat va yordamchi xodimlar soni qonunchilikda belgilangan me’yorlar asosida aniqlanadi.
**Xalqaro moliya institutlarning mablag‘lari hisobidan jalb qilinadi.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023-yil 28.08 dagi 162-son buyrug‘iga
2-ilova


Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi huzuridagi
Respublika Agroxizmatlar markazining
TUZILMASI



*Xodimlarning umumiy cheklangan soni – **205** nafar.*
*Respublika Agroxizmatlar markazi xodimlarning umumiy cheklangan soni - **15** nafar.*
** Halqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan jalb qilinadi.*
*** Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlardagi koordinator xodimlarning umumiy cheklangan soni - **26** nafar.*
**** Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlarning tumanlaridagi agromaslahatchilarning umumiy cheklangan soni - **164** nafar.*
***** Xizmat va yordamchi xodimlar soni qonunchilikda belgilangan me’yorlar asosida aniqlanadi.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023 yil 18.08 dagi 161-son buyrug‘iga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi huzuridagi Hududiy Agroxizmatlar markazining
NAMUNAVIY TUZILMASI



*Xodimlarning umumiy cheklangan soni - **190** nafar.*


Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlardagi koordinator xodimlarning umumiy cheklangan soni - **26 nafar.*

***Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlarning tumanlarida agromaslahatchilarning umumiy cheklangan soni - **164** nafar.*

**** Xizmat va yordamchi xodimlar soni qonunchilikda belgilangan me’yorlar asosida aniqlanadi.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023 yil “ 18 ” 08
162-son buyrug‘iga
4.1 - ilova

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining TUZILMASI



Izoh. *Xodimlarning umumiy cheklangan soni **50 nafar** (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari).*


Ilmiy-tadqiqot instituti bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib, ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.

**Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo‘lim) va rahbarlar.*

***Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlarida belgilangan me’yorlarga asosan aniqlanadi.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023 yil “ 28 ” 08
162-son buyrug‘iga
4.2 - ilova


O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining TUZILMASI



Izoh. *xodimlarning umumiy cheklangan soni **37 nafar** (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari).*
Ilmiy-tadqiqot instituti bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib,
ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.
** Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo‘lim) va rahbarlar.*
***Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlarida belgilangan me’yorlarga asosan aniqlanadi.*
**** Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘linmalar.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023 yil “ 28 ” 08
162-son buyrug‘iga
4.3 - ilova


O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining
TUZILMASI



***Izox**. Xodimlarning umumiy cheklangan soni **29 nafar** (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari) Ilmiy-tadqiqot instituti bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib, ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.*
** Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo‘lim) va rahbarlar.*
***Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik xujjatlarida belgilangan me’yorlarga asosan aniqlanadi.*
****Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘linmalar.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023 yil “ 28 ” 08
162-son buyrug‘iga
4.4 - ilova

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Qoraqalpog‘iston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining TUZILMASI



Izoh. *Xodimlarning umumiy cheklangan soni **22 nafar** (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari).*

Ilmiy-tadqiqot instituti bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib, ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.

** Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo‘lim) va rahbarlar.*


*** Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlarida belgilangan me’yorlarga asosan aniqlanadi.*

**** Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘linmalar.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023-yil “ 28 ” 08
162-son buyrug‘iga
4.5 - ilova

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti

TUZILMASI



Izoh. *Xodimlarning umumiy cheklangan soni **30 nafar** (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari). Ilmiy-tadqiqot instituti bajaradigan ilmiy tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib, ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.*


** Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo‘lim) va rahbarlar.*

*** Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlarida belgilangan me’yorlarga asosan aniqlanadi.*

**** Byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘linmalar.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023-yil “ 28 ” 08
162 -son buyrug‘iga
4.6 - ilova

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi O‘simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutining TUZILMASI



Izoh. *Xodimlarning umumiy cheklangan soni **36 nafar** (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari). Ilmiy-tadqiqot instituti bajaradigan ilmiy tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib, ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.*


** Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo‘lim) va rahbarlar.*

*** Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlarida belgilangan me’yorlarga asosan aniqlanadi.*

**** Byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘linmalar.*

2023-yil "28" 08
162-son buyrug'iga
4.7- ilova

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Don va sholi ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasining TUZILMASI



Izoh. *Xodimlarning umumiy cheklangan soni **24 nafar** (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari). Ilmiy-tadqiqot instituti bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib, ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.*


** Byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo'lim) va rahbarlar.*

*** Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlarida belgilangan me'yorlarga asosan aniqlanadi.*

**** Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladigan bo'linmalar.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023-yil “ 18 ” 08
162-son buyrug‘iga
4.8 - ilova

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot institutining TUZILMASI



Izoh. *Xodimlarning umumiy cheklangan soni 31 nafar (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari). Ilmiy-tadqiqot instituti bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib, ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.*


** Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo‘lim) va rahbarlar.*

*** Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlarida belgilangan me’yorlarga asosan aniqlanadi.*

**** Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘linmalar*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023-yil “ 28 ” 08
167-son buyrug‘iga
4.9 - ilova

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutining TUZILMASI



Izoh. *Xodimlarning umumiy cheklangan soni 20 nafar (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari).*

Ilmiy-tadqiqot instituti bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib, ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.


** Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo‘lim) va rahbarlar.*

*** Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlarida belgilangan me’yorlarga asosan aniqlanadi.*

**** Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘linmalar.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023 yil “ 28 ” 08
162-son buyrug‘iga
4.10 - ilova

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining TUZILMASI



Izoh. *Xodimlarning umumiy cheklangan soni 36 nafar (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari).*

Ilmiy-tadqiqot instituti bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib, ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.


** Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo‘lim) va rahbarlar.*

*** Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlarida belgilangan me’yorlarga asosan aniqlanadi.*

**** Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘linmalar.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023-yil “ 28 ” 08
162-son buyrug‘iga
4.11 - ilova

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutining TUZILMASI



Izoh. *Xodimlarning umumiy cheklangan soni 26 nafar (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari).*

Ilmiy-tadqiqot instituti bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib, ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.


** Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo‘lim) va rahbarlar.*

*** Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlarida belgilangan me’yorlarga asosan aniqlanadi.*

**** Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘linmalar..*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023- yil “28” 08
162-son buyrug‘iga
4.12 - ilova


O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Janubiy Dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti TUZILMASI



Izoh. *Xodimlarning umumiy cheklangan soni 34 nafar (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari)*
Ilmiy-tadqiqot instituti bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib, ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.
**Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo‘lim) va rahbarlar.*
***Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlarda belgilangan me’yorlarga asosan aniqlanadi.*
**** Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘limlar.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023 yil “ 28 ” 08
162-son buyrug‘iga
5- ilova

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari ilmiy-tajriba stansiyalarining NAMUNAVIY TUZILMASI



Izoh. *Xodimlarning umumiy cheklangan soni 9 nafar (ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlardan tashqari).*
Ilmiy-tajriba stansiyasi bajaradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining hajmidan kelib chiqib, ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy xodimlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin.
**) Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy laboratoriyalar (bo‘lim) va rahbarlar.*
***) Ilmiy yordamchi va yordamchi xodimlar soni qonunchilik hujjatlarida belgilangan me’yorlarga asosan aniqlanadi.*
****) Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘linmalar.*

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023-yil “ 28 ” avgustdagi 162
-son buyrug‘iga
6-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining
U S T A V I

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining (keyingi o‘rinlarda - Milliy markaz) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va mas’uliyatini belgilaydi.

2. Milliy markaz qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida ta’lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi sub’ektlariga zamonaviy agroxizmatlar ko‘rsatishning uzviy tizimini ta’minlovchi davlat muassasasi hisoblanadi va o‘z faoliyatida bevosita O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligiga (keyingi o‘rinlarda - Qishloq xo‘jaligi vazirligi) bo‘ysunadi.

3. Milliy markaz Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimiga kiradi hamda sobiq Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat ta’minoti ilmiy-ishlab chiqarish markazining barcha huquqlari va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

4. Milliy markaz o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Ustavga va boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, Qishloq xo‘jaligi vazirligining buyruqlari (qarorlari) va Hay’at qarorlariga amal qiladi.

5. Milliy markaz o‘z faoliyatini davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari, xorijiy va xalqaro hamda nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikda amalga oshiradi.

6. Milliy markazning o‘z vakolatlari doirasida qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyati yo‘nalishida qabul qilgan qarorlari Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda uning tizimidagi qo‘mitalar, agentliklar, markazlar, ilmiy muassasalari tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

7. Milliy markaz va uning tizimidagi Respublika agroxizmatlar markazi, hududiy agroxizmatlar markazlari, ilmiy tashkilotlar va Respublika ilmiy qishloq xo‘jaligi kutubxonasi yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga hamda blankalarga, mustaqil

balansga, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi g‘aznachiligida ochilgan shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga va bank hisobvaraqlariga, shu jumladan, valyuta hisob raqamiga ham ega bo‘ladi.

8. Milliy markazning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi - O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi, qisqartirilgan nomi - Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi;

b) rus tilida:

to‘liq nomi - Natsionalnыy sentr znaniy i innovatsiy v selskom xozyaystve pri Ministerstve selskogo xozyaystva Respubliki Uzbekistan, qisqartirilgan nomi - Natsionalnыy sentr znaniy i innovatsiy v selskom xozyaystve;

v) ingliz tilida:

to‘liq nomi - National Center for Agricultural Knowledge and Innovation under the Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan, qisqartirilgan nomi - National center for agricultural knowledge and innovation.

9. Milliy markaz joylashgan joy (pochta manzili): Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy, 100140.

2- bob. Milliy markazning tashkiliy tuzilmasi

10. Milliy markaz tashkiliy tizimiga kuyidagilar kiradi:

Milliy markaz boshqaruv apparati;

Respublika agroxizmatlar markazi va uning hududiy agroxizmatlar markazi;

Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti;

Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti;

Akademik Maxmud Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti;

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti;

O‘simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti;

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti;

Qoraqalpog‘iston dehkonchilik ilmiy-tadqiqot instituti;

Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti;

Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti;

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti;

Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti;

Don va sholi ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi;

Respublika qishloq ho‘jaligi ilmiy kutubxonasi.

11. Milliy markaz tizimidagi tashkilotlar bevosita Milliy markazga bo‘ysunadi.

12. Qishloq xo‘jaligi vazirligi tarkibidagi barcha ilmiy-tadqiqot institutlarining qishloq xo‘jaligi sohasidagi olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtiradi, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xulosa beradi.

13. Milliy markaz Fanlar Akademiyasining qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohalarida ham ilmiy izlanishlar olib boruvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatni yo‘lga qo‘yadi.

3-bob. Milliy markazning asosiy vazifalari va funksiyalari

14. Quyidagilar Milliy markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) qishloq xo‘jaligi sohasida ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini ta’minlash;

b) fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, agrosanoat klasterlari va kooperativlari hamda ilg‘or xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan manfaatli ilmiy-ishlab chiqarish hamkorligini yo‘lga qo‘yish, yangi ilmiy ishlanmalar, innovatsiyalar hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish;

v) ma’muriy bo‘ysinuvidan qat’iy nazar vazirlik tizimidagi barcha turdagi davlat ilmiy muassasalarning qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish;

g) qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yangi zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni targ‘ib va tadbiq qilishga qaratilgan kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil qilish;

d) qishloq xo‘jaligi sohasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish, zamonaviy dunyoqarashga ega ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, ilg‘or tajriba va texnologiyalar asosida ularning malakasini oshirish;

ye) qishloq xo‘jaligida xususiy sektorni keng jalb etgan holda bilim, malaka va ko‘nikmalarning samarali almashinuvi hamda uzatilishini ta’minlaydigan milliy axborot va maslahat xizmatlari tarmog‘ini rivojlantirish;

j) xalqaro sifat standartlarini joriy qilishda ko‘maklashish, mahsulot yetishtiruvchilar va agrobiznesning o‘zaro hamkorlik platformasini tashkil etish.

15. Milliy markaz o‘ziga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) qishloq xo‘jaligi sohasida ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini ta’minlash sohasida:

-qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, yuqori samarali, ko‘p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish, tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish, qishloqda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

-qishloq xo‘jaligini tashkil etishning ilg‘or xorijiy tajribasini qo‘llash, xalqaro va xorijdagi yetakchi ilmiy markazlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, tasarrufidagi ilmiy tashkilotlar xodimlarining chet el ilmiy muassasalarida malaka oshirishini tashkil etadi;

-ilmiy ishlanmalarni, hosildor navlar, sifatli urug‘lik va ko‘chatlar, samarali va tejamkor agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqish va joriy qilishda agrosanoat klasterlari, kooperativlar, fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bilan manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

-oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat mahsulotlarining sanitar-gigienik xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq ilmiy-amaliy tavsiyalarni beradi va ilmiy natijalarni ishlab chiqaruvchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq xizmatlarni tashkil qiladi;

-qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymat yaratish, jumladan agrar resurslar, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari bozorlari hamda agrar infratuzilmani rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarning ilmiy va amaliy asoslarini yaratish, ilmiy natijalarni agroxizmatlar orqali qishloq xo‘jaligi tadbirkorlik sub’ektlariga yetkazib beradi;

-agrar coha taraqqiyotini prognozlash va rejalashtirish, monitoring va baholash, shuningdek, tizimning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy hamda tashkiliy asoslarini yaratishga qaratilgan qishloq xo‘jaligida bilimlar va innovatsiyalar tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi;

-qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini jahon andozalari doirasida samarali tashkil etishga qo‘maklashish maqsadida xorijiy ekspertlarni jalb etadi;

b) fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, agrosanoat klasterlari va kooperativlari hamda ilg‘or xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan manfaatli ilmiy-ishlab chiqarish hamkorligini yo‘lga qo‘yish, yangi ilmiy ishlanmalar, innovatsiyalar hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida:

-respublika agrosanoat majmuining ilmiy-texnik salohiyatini rivojlantirish, ilm-fanning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

-Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi yerlari tuproq unumdorligini, ekinlar hosildorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ekinlarning yangi serhosil navlarini rayonlashtirish, urug‘chilikni rivojlantirish, resurs tejovchi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha dasturlar, ilmiy tavsiyalar ishlab chiqadi;

-Milliy markaz tizimidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqikotlar natijalarining dehqonchilik, chorvachilik, irrigatsiya, melioratsiya, o‘rmon xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarga joriy etilishi ustidan mualliflik nazoratini amalga oshiradi;

-urug‘chilik xo‘jaliklarini boshoqli don, go‘za, sholi, sabzavot, poliz, kartoshka, moyli, dukkakli, dorivor, ozuqabop va boshqa ekinlarining orginal urug‘liklari hamda mevali va manzarali daraxtlar ko‘chatlari bilan ta’minlaydi;

-manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar, bilimlarni raqamli tarqatish usullarini shakllantiradi hamda amaliyotga tadbiq qiladi;

v) ma’muriy bo‘ysinuvidan qat’iy nazar barcha turdagi davlat ilmiy muassasalarning qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida:

-fundamental va amaliy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy kengashlar, jamiyatlar va boshqa birlashmalarni tashkil qiladi;

-tarkibida ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyat yurituvchi agrosanoat majmuiga kiruvchi vazirliklar va idoralar bilan hamkorlikda ilmiy loyihalar shakllantiradi va bajarilishini muvofiqlashtiradi, olingan natijalarni amaliyotga joriy qiladi;

-barcha turdagi davlat ilmiy muassasalarining qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali muvofiqlashtirish tizimini shakllantirish orqali ilmiy tadqiqotlarning uzviyligini ta’minlaydi, agroxizmatlar ko‘rsatishning natijadorligini oshirish choralarini ko‘radi;

g) qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yangi zamonaviy va innovason texnologiyalarni targ‘ib va tadbiq qilishga qaratilgan kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil qilish sohasida:

-qishloq xo‘jaligi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash ishlarini tashkil etadi;

-yetakchi olimlar va soha mutaxassislarini jalb qilgan holda hududlarning aniq yo‘nalishlar bo‘yicha ehtiyojlarini hisobga olib, mutaxassislar malakasini oshirish kurslarini tashkil etadi;

-qishloq xo‘jaligi va agroxizmatlarlar sohalarida kadrlar malakasini oshirish kurslarida ishtirok qiluvchi olimlar va mutaxassislarning elektron bazasini shakllantiradi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etadi;

-agrosanoat kompleksining muhim dolzarb yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro ilmiy, ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, treninglar, simpoziumlar tashkil qiladi;

d) qishloq xo‘jaligi sohasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish, zamonaviy dunyoqarashga ega ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, ilg‘or tajriba va texnologiyalar asosida ularning malakasini oshirish sohasida:

-o‘z muassasalari kuchi va mablag‘lari bilan qishloq xo‘jaligining muhim yo‘nalishlariga doir fundamental, amaliy, innovatsion loyihalarini bajaradi;

-ilg‘or agrotexnologiyalarni, yuqori unum bilan ishlaydigan qishloq xo‘jaligi mashinalari va mexanizmlarining yangi turlarini yaratish va joriy etish choralarini ko‘radi;

-tuproqning, ayniqsa, o‘rtacha va kuchli sho‘rlangan yerlarda tuproqning unumdorligini tiklash va oshirishni hisobga olgan holda almashlab va sho‘rlangan yerlarga moslashgan ekinlarni ekish sxemalarini ishlab chiqadi va joriy qilishda ishtirok etadi;

-sug‘oriladigan yerlar meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo‘jaligida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni o‘zlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, yangi yerlarni foydalinishga kiritish, sug‘orishning ilg‘or usullari, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etadi;

-oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash, ilmiy tashkilotlar qoshida oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlari faoliyatini rivojlantirish orqali soha

uchun ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini kengaytiradi;

-Milliy markaz va uning tuzilmasidagi tashkilotlar va muassasalar xodimlari, shuningdek, ilmiy xodimlarning rivojlangan davlatlar ilmiy markazlariga xorijiy stajirovkalarini tashkil etadi;

ye) qishloq xo'jaligida xususiy sektorni keng jalb etgan holda bilim, malaka va ko'nikmalarning samarali almashinuvi hamda uzatilishini ta'minlaydigan milliy axborot va maslahat xizmatlari tarmog'ini rivojlantirish sohasida:

-agrosanoat majmuiga kiruvchi turli tashkilotlar va idoralar bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligida bilimlar va innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha xizmatlar sifatini yaxshilash, qishloq xo'jaligi, agroxizmatlar ko'rsatishda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtiradi;

-ilmiy ishlanmalarni qishloq xo'jaligida joriy qilish, ilmiy va axborot maslahatlarni tashkil etish, ilmiy ishlanmalarni nashr etish, bilimlarni qishloq xo'jaligida ommalashtirish choralarini ko'radi;

-ilmiy natijalarni ishlab chiqarishga joriy etish uchun xo'jalik hisobidagi bo'linmalarni, tadbirkorlik sub'ektlarini jalb etgan holda ilmiy-innovatsion korxonalarni tashkil qiladi;

j) xalqaro sifat standartlarini joriy qilishda ko'maklashish, mahsulot yetishtiruvchilar va agrobiznesning o'zaro hamkorlik platformasini tashkil etish sohasida:

-qishloq xo'jaligi mahsulot ishlab chiqaruvchilarining ilmiy ishlanmalarga ehtiyojini e'tiborga olib, zamon talablariga javob beradigan, tijoratlashtirish darajasi yuqori bo'lgan ilmiy natijalar uchun halqaro sifat standartlarini joriy qiladi;

-xalqaro ilg'or tajribalar asosida agrar sohadagi innovatsion resurstejamkor texnika va texnologiyalar hamda ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratadi hamda qishloq xo'jaligi bilimlari va innovatsiyalar tizimi sub'ektlarining foydalanishi uchun qulay raqamli axborot almashinuvi tizimini shakllantiradi;

-ilmiy tashkilotlar tomonidan yaratilgan intellektual mulkni xalqaro miqyosda himoya qilish va moliyaviy rag'batlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

-ilmiy tashkilotlarda yangi ilmiy yo'nalishlar, laboratoriyalar va tajriba uchastkalarini tashkil qilish, shuningdek, ilmiy izlanishlar natijadorligini oshirish maqsadida laboratoriyalarda ishlash ko'nikmasini xodimlarda shakllantirish uchun halqaro ekspertlarni jalb qiladi.

4- bob. Milliy markaz va uning tarkibiy bo'linmalarining huquqlari hamda javobgarligi

1- §. Milliy markazning huquqlari va javobgarligi

16. Milliy markaz o'ziga yuklangan asosiy vazifalarni amalga oshirish va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

vakolatli organlarga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, Milliy markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa hujjatlarni kiritish;

ilmiy konferensiya, seminar, simpoziumlar o‘tkazish hamda boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan shunday tadbirlarda ishtirok etish, metodik materiallar va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish, chop etish;

malakali xorijiy mutaxassislarni, ularga istisno tariqasida Milliy markazning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan xorijiy valyutada ish haqi va boshqa to‘lovlarni belgilagan holda xodimlar va maslahatchilar sifatida jalb qilish;

boshqa davlat organlari va mansabdor shaxslardan Milliy markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur hujjatlar va axborot, shu jumladan, statistik ma’lumotlarni so‘rab olish;

Milliy markaz vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘rganishda axborot-tahliliy materiallar tayyorlashda vazirliklar va idoralar vakillarini jalb etish;

Milliy markazning tuzilmasidagi tashkilotlarda ichki nazorat, korrupsion huquqbuzarliklar va qonunlarga zid boshqa harakatlar, shuningdek, Milliy markaz tizimi xodimlari tomonidan kasbiy axloq qoidalari buzilishining oldini olish;

Milliy markaz vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha idoralararo tusdagi xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;

o‘z vakolati doirasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan manfaatli ilmiy hamkorlikni amalga oshirish;

Milliy markaz faoliyatini keng yoritish maqsadida rasmiy veb-saytlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar yaratish;

qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar sohasini rivojlantirishga oid dolzarb va istiqboldagi muammolar yechimini ishlab chiqish maqsadida mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilish;

Milliy markazning va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlar mol-mulkini (bino-inshoot, avtotransport vositalari va boshqalar) o‘zining tashkiliy tuzilmasi doirasida tekin foydalanish huquqi asosida bir tarkibiy bo‘linmadan boshqa tarkibiy bo‘linmaga o‘tkazish;

Milliy markaz va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlari tomonidan o‘z sohasida ular faoliyati natijalari asosida ularni moddiy rag‘batlantirish tartibi, miqdorlari va shartlarini belgilash;

Milliy markaz vakolatiga kiruvchi masalalarni ko‘rib chiqishda Qishloq xo‘jaligi vazirligi, shuningdek davlat organlari va tashkilotlarining hay’at majlislarida ishtirok etish;

qonunchilikda belgilangan tartibda Milliy markazning byudjetdan tashqari mablag‘lari jamg‘armasini shakllantirish va uning mablag‘laridan maqsadli foydalanish;

byudjetdan tashqari mablag‘larni, Milliy markazning depozit hisobvaraqlarida joylashgan mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit hisobvaraqlarida milliy va xorijiy valyutada joylashtirish, olingan daromadlardan qonunchilikda belgilangan tartibda mustaqil foydalanish;

Milliy markaz faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tegishli tuzilmalarni tashkil etish, ularni qayta tashkil etish va tugatish yuzasidan takliflar berish;

Milliy markaz tizimidagi tashkilotlarning ustavlarini tasdiqlash;

Milliy markaz qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

17. Milliy markaz:

qishloq xo‘jaligi sohasida ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini ta’minlashga, Milliy markaz tizimidagi ilmiy tashkilotlarning qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirishga;

Milliy markaz tarkibiy bo‘linmalarining Milliy markaz faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlariga erishishni ta’minlash bo‘yicha ishlarining tashkil etilishiga;

vakolatli organlarga kiritilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va boshqa hujjatlar, shuningdek, Milliy markaz tomonidan qabul qilinayotgan buyruqlarning amalga oshirilishi oqibatlari natijasida yuzaga keladigan holatlarga;

o‘z faoliyati sohasini rivojlantirish bo‘yicha tadbirlar rejalari, “Yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali amalga oshirilishiga javobgar hisoblanadi.

2- §. Milliy markaz boshqaruv apparatining huquqlari va javobgarligi

18. Milliy markazning boshqaruv apparati o‘ziga yuklangan asosiy vazifalarni amalga oshirish va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

tegishli ma’lumotlar bazalaridan, davlat axborot tizimlaridan va vakolatli organlar resurslaridan belgilangan tartibda foydalanish;

Milliy markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumot va hujjatlarni davlat boshqaruvi organlaridan va tashkilotlaridan hamda ularning mansabdor shaxslaridan so‘rash va olish;

Milliy markaz tizimidagi ilmiy tashkilotlar, Respublika ilmiy qishloq xo‘jaligi kutubxonasi, Respublika va hududiy agroxizmatlar markazlari rahbarlariga tezkor hal qilinishi talab etiladigan va Milliy markazga yuklangan vazifalar hamda funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan belgilangan tartibda topshiriqlar berish;

Milliy markazda ko‘rib chiqiladigan axborot va tahliliy materiallar, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda zarur bo‘lganda ekspert jalb etish;

Milliy markaz tizmidagi tashkilotlar ular kiritgan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarini qayta ishlab chiqishni talab qilish, qayta ko‘rib chiqish uchun qaytarish;

Milliy markaz tizimidagi tashkilotlar qabul qilingan qarorlari, buyruqlari va boshqa hujjatlarni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi

topshiriqlari, Milliy markaz rahbariyati topshiriqlari bajarilishiga oid faoliyatini o‘rganish;

Milliy markazga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot, loyihalash tashkilotlar, oliy ta’lim muassasalari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni ularning xohishiga ko‘ra hamda shartnoma asosida jalb etish;

Milliy markazning byudjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish;

Milliy markaz vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va xo‘jalik birlashmalari ko‘rib chiqishi uchun takliflar kiritish.

Milliy markaz boshqaruv apparati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

19. Milliy markaz boshqaruv apparati:

Milliy markaz tizimidagi tashkilotlar bilan birga Milliy markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlashga;

qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalarni rivojlantirish rejalari, prognoz va joriy ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha Milliy markaz bo‘linmalarining faoliyatini tashkil etishga;

Milliy markaz tomonidan ko‘rib chiqish uchun vakolatli davlat organlariga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va boshqa hujjatlarni, shuningdek, Milliy markaz qabul qiladigan qarorlarni sifatli tayyorlash va xulosa berishga;

Milliy markazning tashkiliy tuzilmasidagi ilmiy tashkilotlar tomonidan dasturlar, chora-tadbirlar rejalari, “Yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlar amalga oshirilishini tashkil etishga;

Milliy markaz o‘z vakolati doirasida fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlariga rioya etilishini va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash uchun javob beradi.

5- bob. Milliy markaz rahbariyatining asosiy funksional vazifalari

20. Quyidagilar Milliy markaz Bosh direktorining (keyingi o‘rinlarda - Bosh direktor) asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar sohasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilish;

Milliy markaz faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qishloq xo‘jaligi vazirligining buyruqlari (qarorlari) va boshqa qonun hujjatlari bilan Milliy markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

o‘z o‘rinbosarlari va Milliy markazning boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, Milliy markaz faoliyatini tashkil qilishda o‘z o‘rinbosarlari va boshqa mansabdor shaxslarning shaxsiy mas’uliyati

darajasini belgilash;

Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tarmog‘ini rivojlantirish tendensiyalaridan kelib chiqib Milliy markaz va o‘z o‘rinbosarlari ish rejalarini tasdiqlash va ularning bajarilishi nazoratini ta’minlash;

Milliy markaz va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlarini qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

Milliy markazda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, Milliy markazning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Milliy markazga kadrlarni professional, o‘z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlari va ma’naviy-axloqiy fazilatlari asosida ishga qabul qilish;

o‘z o‘rinbosarlarining faoliyati natijadorligi va samaradorligini tizimli ravishda tanqidiy o‘rganish, ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, hisobotlar yakunlari bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;

Milliy markazning tuzilmasidagi tashkilotlar rahbarlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

Milliy markaz xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, o‘z o‘rinbosarlari va Milliy markazning boshqa mansabdor shaxslarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishga doir samarali ishlarni tashkil etish, qonunchilikda belgilangan muddat va tartibda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

Milliy markaz tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomni, lavozim yo‘riqnomalari, shuningdek, idoraviy mansub tashkilotlarning nizom va ustavlarini, tizimdagi ilmiy tashkilotlar ilmiy kengashlari tarkibini hamda Milliy markazning boshqa ichki lokal hujjatlarini belgilangan tartibda tasdiqlash;

Milliy markaz boshqaruv apparati xodimlarini, shuningdek, tizimidagi ilmiy tashkilotlar, Respublika ilmiy qishloq xo‘jaligi kutubxonasi va Respublika agroxizmatlar markazi direktor o‘rinbosarlarini hamda hududiy agroxizmatlar markazlari direktorlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish.

Milliy markaz Bosh direktor o‘rinbosarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish bo‘yicha Qishloq xo‘jaligi vaziriga tavsiya kiritish;

Milliy markaz, uning tuzilmasidagi tashkilot mansabdor shaxslari va xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar, qarorlar chiqarish va ko‘rsatmalar berish, shuningdek, ularning ijrosini belgilangan tartibda nazorat qilish;

xodimlarning belgilangan umumiy cheklangan soni doirasida Milliy markaz, uning tuzilmasidagi tashkilotning shtatlar jadvalini, daromad va xarajatlar smetasini

tasdiqlash;

Milliy markazning boshqaruv apparati va uning tizimidagi tashkilotlar tuzilmasi xodimlarining belgilangan umumiy cheklangan soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflarni Qishloq xo‘jaligi vaziriga kiritish;

Milliy markazning tuzilmasidagi tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlarini buzgan holda qabul qilingan buyruqlari va qarorlarini (ko‘rsatmalarini) bekor qilish;

alohida o‘zini ko‘rsatgan xodimlarni ularga davlat mukofotlari berish uchun ularning nomzodlarini belgilangan tartibda taqdim etish;

Milliy markaz faoliyatiga oid sohalarda xalqaro va hukumatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish bo‘yicha xalqaro tadbirlarda ishtirok etish.

21. Quyidagilar Bosh direktor o‘rinbosarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

Bosh direktor vaqtincha bo‘lmaganda Bosh direktorning tegishli buyrug‘i asosida uning vazifalarini bajarish;

Milliy markazning mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalari (bo‘lim va sho‘balar) faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va ularga bevosita rahbarlik qilish, ularning xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlash;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan prognoz ko‘rsatkichlariga erishishni ta’minlash tadbirlarini tashkil qilish, bo‘linmalar rahbarlarining hisobotlarini eshitish va ushbu ko‘rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirish;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalarning ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlash;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi hay’ati, Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Bosh direktorning buyruqlari (qarorlari) va topshiriqlari o‘z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta’minlash;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalarda kadrlarni ularning professionalligi, o‘z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma’naviy-ahloqiy fazilatlari asosida tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha Milliy markaz Bosh direktoriga takliflar kiritish, kadrlar zaxirasini shakllantirish yuzasidan tavsiyalar berish;

Milliy markazga taqdim etilgan takliflar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to‘liq va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta’minlash;

Milliy markazning mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari va xodimlari faoliyati natijadorligini muntazam tanqidiy tahlil qilish, ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish;

Ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy ishlarni muvofiqlashtirish, yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etishni tashkil etish;

Milliy markaz tizimidagi ilmiy tashkilotlarda oliy ta’limdan keyingi tahsil

oluvchi tadqiqotchilar (tayanch doktorantura (PhD), doktorantura (DSc), stajyor-tadqiqotchi, mustaqil izlanuvchilar) faoliyatini muvofiqlashtiradi;

Milliy markaz faoliyatiga oid tegishli masalalar bo‘yicha Milliy markaz faoliyatini takomillashtirishga doir amaliy chora-tadbirlar ko‘rish hamda ushbu sohalardagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish Bosh direktorga takliflar kiritish;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlar va xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimidan ozod etish yuzasidan takliflarni Bosh direktorga kiritish;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarining odob-axloq qoidalari, ichki mehnat tartibi qoidalari talablariga rioya qilishini ta’minlash;

Milliy markaz faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga doir takliflarni Bosh direktorga kiritish;

qonunchilikda belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha samarali ishlarni tashkil etish.

22. Quyidagilar Milliy markaz boshqaruv apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish;

tarkibiy bo‘linmalar faoliyatiga rahbarlik qilish, bo‘linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

tegishli tarkibiy bo‘linmalar va Milliy markaz tuzilmasidagi tashkilotlar faoliyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtirish;

prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini muntazam tahlil qilish hamda ushbu ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlashga qaratilgan choralar ko‘rish bo‘yicha takliflarni Milliy markaz rahbariyatiga kiritish;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi hay’ati qarorlari, Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Bosh direktor va uning o‘rinbosarlari qarorlari, buyruqlari, farmoyishlari va topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

tarkibiy bo‘linmalarning ish rejalarini ishlab chiqish, ularni tasdiqlash uchun kiritish, ularda ko‘rsatilgan vazifalar va tadbirlar o‘z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta’minlash;

tarkibiy bo‘linmalarga yuklangan vazifalar bajarilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish, Milliy markazning tegishli tarkibiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari faoliyati sohasiga oid masalalar bo‘yicha amaliy va metodik yordam ko‘rsatish;

tarkibiy bo‘linmalar faoliyati sohalariga oid qonun hujjatlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va ularni ko‘rib chiqish uchun Milliy markaz rahbariyatiga kiritish;

tarkibiy bo‘linmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda direktorning

mutasaddilik qilinadigan o‘rinbosarlariga taklif kiritish, ularning kasb malakasini oshirish choralarini ko‘rish;

normativ-xuquqiy hujjatlar loyihalari tarkibiy bo‘linmalar tomonidan sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish;

tarkibiy bo‘linmalar xodimlari faoliyati natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, hisobotlar yakunlari bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rish;

soha faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishga doir takliflarni Milliy markazning tegishli majmuasi rahbariga kiritish;

qonunchilikda belgilangan muddat va tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, tegishli asoslantirilgan javoblarni tayyorlash.

23. Milliy markaz tizimdagi ilmiy tashkilotlar, Respublika ilmiy qishloq xo‘jaligi kutubxonasi, Respublika va hududiy agroxizmatlar markazi rahbarlarining asosiy funksional vazifalari Bosh direktor tomonidan tasdiqlanadi.

b-bob. Milliy markaz rahbarlarining javobgarligi

24. Bosh direktor:

Milliy markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun;
Ushbu Ustavning 17-bandida nazarda tutilgan javobgarlik sohalari bo‘yicha;

Ushbu Ustavning 19-bandida ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

25. Bosh direktorning o‘rinbosarlari:

Milliy markazning o‘zi nazorat qiladigan tarkibiy bo‘linmalarida Milliy markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun;

Ushbu Ustavning 17-bandida nazarda tutilgan Milliy markazning mutasaddilik qilinadigan masalalarga doir javobgarlik sohalari bo‘yicha;

Ushbu Ustavning 21-bandida ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

26. Milliy markaz tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari:

Tegishli tarkibiy tuzilmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning amalga oshirilishi uchun;

Ushbu Ustavning 17-bandida nazar da tutilgan Milliy markaz boshqaruv apparatining javobgarlik sohalari bo‘yicha;

Ushbu Ustavning 22-bandida ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

7- bob. Milliy markaz faoliyatini tashkil etish.

1-§. Milliy markaz rahbariyati

27. Milliy markazga Qishloq xo‘jaligi vaziri tomonidan tayinlanadigan Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi Bosh direktori rahbarlik qiladi.

28. Bosh direktor o‘rinbosarlari Qishloq xo‘jaligi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etadi va Bosh direktor ikki nafar o‘rinbosarga ega bo‘ladi.

Ishlab chiqarish zaruriyatidan kelib chiqib, Qishloq xo‘jaligi vaziri bilan kelishgan holda Bosh direktorning buyrug‘i bilan bo‘sh turgan Bosh direktor o‘rinbosari lavozimi vazifasini vaqtincha bajarish Bosh direktor tomonidan belgilangan shaxsga yuklatilishi mumkin.

29. Bosh direktor bo‘lmagan vaqtda uning vazifa va vakolatlari Bosh direktorning buyrug‘i bilan uning o‘rinbosarlaridan biriga yuklatiladi.

30. Bosh direktor lavozimi bo‘yicha Qishloq xo‘jaligi vazirligi hay’ati tarkibiga kiritiladi.

31. Bosh ilmiy kotib lavozimi Milliy markaz boshqaruv apparatining bo‘lim boshlig‘i lavozimiga tenglashtiriladi.

32. Respublika agroxizmatlar markazi direktori Qishloq xo‘jaligi vaziri tomonidan, Respublika agroxizmatlar markazi direktor o‘rinbosari va hududiy agroxizmatlar markazlari direktorlari Milliy markaz Bosh direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

2-§. Milliy markazning Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligi

33. Milliy markaz o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek, Qishloq xo‘jaligi vazirligining markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari va hududiy boshqarmalari, bo‘limlari hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligining idoraviy mansub tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

34. Milliy markazning Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari, shuningdek, idoraviy mansub tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligi bevosita Bosh direktor va uning o‘rinbosarlari tomonidan ta’minlanadi.

3-§. Milliy markazning boshqa davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi

35. Milliy markaz o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishda boshqa davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi.

4- §. Milliy markazning kengash, maslahat va ekspert organlari

36. Milliy markazda belgilangan tartibda ilmiy-texnik kengash tashkil etiladi. Ilmiy-texnik kengash to‘g‘risidagi nizom va uning tarkibi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Bunda:

Ilmiy-texnik kengash tarkibiga Bosh direktor, Bosh direktorning o‘rinbosari, Bosh ilmiy kotib va boshqa xodimlar, shuningdek, olimlar hamda vazirlik va idoralarning mutaxassislari kiritiladi;

qoida tariqasida, Bosh direktor Ilmiy-texnik kengash raisi, Bosh direktorning o‘rinbosari (ilmiy tadqiqotlar majmuasi rahbari) Ilmiy-texnik kengash raisi o‘rinbosari hisoblanadi.

37. Ilmiy-texnik kengash:

qishloq xo‘jaligi ilm-fani rivojlanishi, qishloq xo‘jaligi e’tiyojlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash, qishloq xo‘jaligiga agroxizmatlar ko‘rsatishning muhim masalalarini ko‘rib chiqadi va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi;

respublika agrosanoat majmui sub’ektlariga innovatsiyalarni joriy qilish to‘g‘risidagi dasturlarni tasdiqlaydi va fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishni faollashtirishga doir tavsiyalarni ishlab chiqadi, joriy etish va agroxizmatlar ko‘rsatish rejalarini tasdiqlaydi;

ilm-fanning va ilmiy natijalarni amaliyotga joriy qilish, qishloq xo‘jaligida bilimlar innovatsiyalarni tarqatishning dolzarb yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy ma’ruzalarni va axborotlarni eshitadi;

Milliy markazga yuklangan vazifalarni bajarish uchun belgilangan tartibda ilmiy-tadqiqot, ilmiy-yordamchi muassasalar va korxonalar tashkil etadi, shuningdek tashkil etiladigan ilmiy tashkilotlarning faoliyat yo‘nalishini va ixtisoslashuvini belgilaydi;

ilmiy konferensiyalar va kengashlar chaqiradi, munozaralar o‘tkazadi, tadqiqot ekspeditsiyalari tashkil etadi;

Milliy markaz tizimida malakali kadrlar, shuningdek, ilmiy darajaga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash bo‘yicha rejalarni muhokama qiladi va ushbu ishlarga rahbarlik qiladi;

Milliy markaz Respublika agroxizmatlar markaz va tizimdagi ilmiy tashkilotlarning ilm-fanga ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitadi;

dissertatsiyalarni himoya qilish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan kengashlar tarkibini Oliy attestatsiya komissiyasi tasdiqlashi uchun taqdim etadi hamda ixtisoslashtirilgan kengashlar raislarining o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitadi.

38. Milliy markaz Ilmiy-texnik kengashi uning majlisida o‘z a’zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashgan taqdirda qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘ladi.

39. Ilmiy-texnik kengash qarorlari ochiq ovoz bergan holda ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

40. Ilmiy-texnik kengash qarorlari Bosh direktor tomonidan tasdiqlanadi.

8- bob. Milliy markazning ilmiy-tadqiqot muassasalari

41. Milliy markazning ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ishlab chiqarish faoliyati uning ilmiy tashkilotlarida (ilmiy-taqiqot institutlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va boshqa muassasalar) olib boriladi.

42. Ilmiy tashkilotlar o‘z faoliyatini Milliy markaz boshqaruv apparati bo‘limlarining uslubiy rahbarligida amalga oshiradilar.

43. Ilmiy tashkilotlar direktorlari Qishloq xo‘jaligi vaziri tomonidan, direktor o‘rinbosarlari Bosh direktor tomonidan, qoida tariqasida, ilmiy darajaga ega olimlar orasidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

44. Ilmiy tashkilotlar direktorlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan ilmiy tashkilotlar,

ishlab chiqarish korxonalari faoliyati hamda fan yutuqlari ishlab chiqarishga joriy etilishi uchun shaxsan javob beradilar.

45. Ilmiy tashkilotlar ilmiy kotibi, ilmiy-tadqiqot bo'linmalari (institut, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi bo'limi, sho'basi, laboratoriyasi) mudirlari direktor tomonidan, qoida tariqasida, fan doktorlari (DSc) yoki falsafa doktorlari (PhD) orasidan tayinlanadilar.

46. Ilmiy tashkilotlar huzurida belgilangan tartibda sanoat korxonalari, konstruktorlik, texnologiya va loyihalash byurolari, hisoblash markazlari, eksperimental xo'jaliklar, shuningdek, kooperativlar, kichik va qo'shma korxonalar tashkil etilishi mumkin.

47. Ilmiy-tadqiqot muassasalari (institutlar, ilmiy-ishlab chikarish birlashmalari, konstruktorlik byurolari) va Milliy markazning barcha ishlab chiqarish tuzilmalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ustav asosida faoliyat yuritadi.

48. Yuqori turuvchi vazirlik va idoralarga, halqaro tashkilotlarga Milliy markaz tizimidagi ilmiy - tadqiqot institutlaridan hamda Respublika va hududiy agroxizmatlar markazlaridan chiquvchi har qanday korrespondensiya Milliy markaz bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda chiqariladi.

49. Milliy markazning Respublika va hududiy agroxizmatlar markazlari, tizimdagi ilmiy tashkilotlar va Respublika ilmiy qishloq xo'jaligi kutubxonasi rahbarlari xorijiy davlatlarga xizmat safarlari yoki turli guruhlar, delegatsiyalar tarkibida chiqib ketadigan holatlar Milliy markazning tegishli ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari respublikaning boshqa hududlariga xizmat safariga chiqilgan taqdirda Milliy markazni ogohlantirish tartibi yo'lga qo'yiladi.

Ushbu tartibni buzgan rahbarlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda lavozimidan chetlatishgacha bo'lgan ma'muriy choralar ko'rish yuzasidan Qishloq xo'jaligi vaziriga taklif kiritiladi.

9- bob. Milliy markaz faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlari

50. Milliy markaz faoliyatining samaradorligi va natijadorligi muntazam baholanib boriladi.

51. Milliy markaz faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash Ilmiy-texnik kengash tomonidan tasdiqlanadigan Milliy markaz faoliyati natijadorligini baholash mezon va indikatorlariga asoslanadi.

52. Milliy markaz faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo'yicha:

Milliy markaz rahbarlari va xodimlariga nisbatan ragbatlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlik choralari;

Milliy markaz faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ko'riladi.

10- bob. Milliy markazni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy himoya qilish

53. Milliy markaz boshqaruv apparati va tizim tashkilotlari xodimlari ish haqi lavozim maoshi, ilmiy darajalar, ish staji uchun ustama haqlar, davlat, milliy va kasb bayramlari kunlari uchun mukofotlar, qo‘shimcha haqlar, ustamalardan, rag‘batlantirish to‘lovlaridan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlardan iborat.

54. Milliy markazning boshqaruv apparati xodimlariga Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati uchun mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlari mos ravishda qo‘llaniladi.

Respublika agroxizmatlar markazi ma’muriyati xodimlariga Milliy markaz boshqaruv apparati uchun, hududiy va tuman agroxizmatlar markazlari xodimlariga vazirlikning viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmalari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlari mos ravishda qo‘llaniladi.

55. Milliy markaz O‘zbekistan Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari, belgilangan tartibda jalb etiladigan byudjetdan tashqari mablag‘lar, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari va xorijiy tashkilotlarning grantlari, bo‘sh turgan byudjetdan tashqari mablag‘larni belgilangan tartibda tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan olinadigan daromadlar hamda qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

11-bob. Milliy markazning hisobot berishi

56. Milliy markaz faoliyati to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligiga har chorak yakuni bilan hisobot beradi.

57. Qishloq xo‘jaligi vazirligi Milliy markaz rahbarlariga yuklangan vazifalar samarali bajarilishi uchun ularning faoliyati ustidan muntazam monitoring olib boradi, Milliy markaz faoliyati samaradorligiga xolisona baho beradi.

58. Monitoring va baholash yakunlari bo‘yicha Milliy markazning alohida o‘rnak ko‘rsatgan rahbarlari, mansabdor shaxslari va xodimlari rag‘batlantiriladi yoki yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar uchun intizomiy javobgarlikka tortiladi.

12- bob. Yakunlovchi qoidalar

59. Milliy markaz faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

60. Mazkur Ustav talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023 yil “28” 08 dagi 162-son buyrug‘iga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi huzuridagi Respublika agroxizmatlar markazi USTAVI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi huzuridagi Respublika agroxizmatlar markazining (keyingi o‘rinlarda – Respublika agroxizmatlar markazi) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligini, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va mas’uliyatini belgilaydi.

2. Respublika agroxizmatlar markazi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida ta’lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi sub’ektlariga zamonaviy axborot-maslahat xizmatlar ko‘rsatishning uzviy tizimini ta’minlovchi davlat muassasasi hisoblanadi va o‘z faoliyatida bevosita O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markaziga (keyingi o‘rinlarda – Milliy markaz) bo‘ysunadi.

3. Respublika agroxizmatlar markazi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Ustavga va boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, Qishloq xo‘jaligi vazirligining buyruqlari (qarorlari) va Hay’at qarorlariga amal qiladi.

4. Respublika agroxizmatlar markazi o‘z faoliyatini davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari, xorijiy va xalqaro hamda nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Respublika agroxizmatlar markazi yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga hamda blankalarga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi g‘aznachiligida ochilgan shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga va bank hisobvaraqlariga, shu jumladan, valyuta hisob raqamiga ega bo‘ladi.

6. Respublika agroxizmatlar markazining rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi – Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi huzuridagi Respublika agroxizmatlar markazi, qisqartirilgan nomi – Respublika agroxizmatlar markazi;

b) rus tilida:

to‘liq nomi – Respublikanskiy sentr agrouslug pri Natsionalnom sentre znaniy i innovatsiy v selskom xozyaystve qisqartirilgan nomi – Respublikanskiy sentr agrouslug;

v) ingliz tilida:

to‘liq nomi – Republican center for agricultural services under the National center for knowledge and innovation in agriculture qisqartirilgan nomi – Republican center for agricultural services.

7. Respublika agroxizmatlar markazi joylashgan joy (pochta manzili): Toshkent viloyati, Yuqorichirchiq tumani, A.Yassaviy MFY, Sh.Rashidov ko‘chasi, 1-uy, 111909.

2-bob. Respublika agroxizmatlar markazining tuzilmasi

8. Respublika agroxizmatlar markazi tizimiga quyidagilar kiradi:

Respublika agroxizmatlar markazining ma’muriyati;

Respublika agroxizmatlar markazining hududiy agroxizmatlar markazlari (keyingi o‘rinlarda – hududiy agroxizmatlar markazlari);

Respublika agroxizmatlar markazining tuman agroxizmatlar markazlari (keyingi o‘rinlarda – tuman agroxizmatlar markazlari).

9. Respublika agroxizmatlar markazining hududiy agroxizmatlar markazlari yuridik shaxs maqomiga ega.

10. Respublika agroxizmatlar markazining tumanlardagi mutaxassis xodimlari joylarda qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda axborot va maslahat xizmatlarini ko‘rsatadi.

3-bob. Respublika agroxizmatlar markazining asosiy vazifalari va funksiyalari

11. Quyidagilar Respublika agroxizmatlar markazining asosiy vazifalari hisoblanadi:

qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi (AKIS) konsepsiyasini ijrosini ta’minlash va integratsiyalash;

yangi ilmiy ishlanmalar, innovatsiyalar hamda raqamli texnologiyalarni targ‘ib qilish va ishlab chiqarishga joriy etish;

Milliy markaz tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda qishloq xo‘jaligi tadbirkorlik sub’ektlariga hududlarda agro maslahat xizmatlarini ko‘rsatish, seminar-treninglar tashkil etish, ilmiy asoslangan tavsiya va xulosalarni berish;

qishloq xo‘jaligi sohasida ilg‘or tajriba va zamonaviy texnologiyalar asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarining malakasini oshirish;

qishloq xo‘jaligida xususiy sektorni keng jalb etgan holda bilim, malaka va ko‘nikmalarning samarali almashinuvi hamda uzatilishini ta’minlaydigan maslahat xizmatlari tarmog‘ini rivojlantirish;

qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg‘or xorijiy tajribasini qo‘llash, xalqaro va xorijdagi yetakchi ilmiy markazlar bilan hamkorlikni rivojlantirishni tashkil etish;

qishloq xo‘jaligi tadbirkorlik sub’ektlariga resurstejamkor agrotexnik tadbirlarni joriy qilishda manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

qishloq xo‘jaligi sohasidagi yaratilgan yangi ilmiy ishlanma va natijalarni ishlab chiqaruvchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq maslahat resurslarini muvofiqlashtirish va boshqarish;

Agrobank ATBning joylardagi Agromarkazlari bilan hamkorlikda samarali va shaffof maslahat tizimi faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

barcha hududlardagi dehqon va fermer xo‘jaliklarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan maslahat xizmatlarini ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish;

hududlarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qishloq xo‘jaligi ekinlarini agrotexnik tadbirlarini o‘tkazishda ilg‘or tajribalar, ilm-fan yutuqlarini targ‘ib qilish va ishlab chiqarishga joriy etish;

fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, agrosanoat klasterlari va qishloq xo‘jaligi kooperativlari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yo‘naltirishda tavsiyalar va maslahatlar berish;

maslahat xizmatlari ko‘rsatishni doimiy ravishda yaxshilash uchun monitoring, baholash, foydalanuvchilarning fikr-mulohazalari va o‘rganish jarayonlarini muvofiqlashtirish;

qishloq xo‘jaligida xususiy sektorni keng jalb etgan holda bilim, malaka va ko‘nikmalarning samarali almashinuvi hamda uzatilishini ta’minlaydigan milliy axborot va maslahat xizmatlari tarmog‘ini rivojlantirish;

agrosanoat majmuiga kiruvchi turli tashkilotlar va idoralar bilan hamkorlikda qishloq xo‘jaligida bilimlar va innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha xizmatlar sifatini yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish;

ilmiy ishlanmalarni qishloq xo‘jaligida joriy qilish, ilmiy va axborot maslahatlarni tashkil etish, bilimlarni qishloq xo‘jaligida ommalashtirish choralarini ko‘rish;

agrar sohadagi innovatsion resurstejamkor texnika va texnologiyalar hamda ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalar bo‘yicha ma’lumotlarni qishloq xo‘jaligi tadbirkorlik sub’ektlariga yetkazish;

Xalqaro moliya institutlarining kredit va grant mablag‘lari hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida joylarda ko‘rgazmali o‘quv seminarlar va treninglar o‘tkazish, ilmiy tavsiyalar, tarqatma materiallarni ishlab chiqaruvchilarga yetkazib berish;

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar mablag‘lari hisobidan agroxizmatlar tizimini modernizatsiya qilish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralarini ko‘rish;

Respublika agroxizmatlar markazi har chorakda o‘z faoliyati to‘g‘risida Milliy markazga hisobot topshiradi.

4-bob. Respublika agroxizmatlar markazi va uning tarkibiy bo‘linmalarining huquqlari hamda javobgarligi

1-§. Respublika agroxizmatlar markazining huquqlari va javobgarligi

12. Respublika agroxizmatlar markazi o‘ziga yuklangan asosiy vazifalarni amalga oshirish va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

vakolatli organlarga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, Respublika agroxizmatlar markaziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa hujjatlarni kiritish;

konferensiya, seminar, simpoziumlar o‘tkazish hamda boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan shunday tadbirlarda ishtirok etish, metodik materiallar va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish va yetkazish;

malakali xorijiy mutaxassislarni, ularga istisno tariqasida Respublika agroxizmatlar markazning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan xorijiy valyutada ish haqi va boshqa to‘lovlarni belgilagan holda xodimlar va maslahatchilar sifatida jalb qilish;

Respublika agroxizmatlar markazi vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘rganishda axborot-tahliliy materiallar tayyorlashda vakolati doirasida tegishli idoralar vakillarini jalb etish;

Respublika agroxizmatlar markazining tuzilmasidagi hududiy bo‘linmalarida ichki nazorat, korrupsion huquqbuzarliklar va qonunlarga zid boshqa harakatlar, shuningdek, markaz tizimi xodimlari tomonidan kasbiy axloq qoidalari buzilishining oldini olish;

Respublika agroxizmatlar markazi tuzilmasidagi hududiy bo‘linmalarida pullik ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxati va tariflarini belgilash hamda tasdiqlash;

fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, agrosanoat klasterlari va qishloq xo‘jaligi kooperativlarini yagona ijtimoiy guruhlarga jamlagan holda agromaslahat xizmatlarini doimiy ravishda ko‘rsatish;

Respublika agroxizmatlar markazi vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha idoralararo tusdagi xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;

o‘z vakolati doirasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan manfaatli ilmiy hamkorlikni amalga oshirish;

Respublika agroxizmatlar markazi faoliyatini keng yoritish maqsadida rasmiy veb-saytlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar yaratish;

qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar sohasini rivojlantirishga oid dolzarb va istiqboldagi muammolar yechimini ishlab chiqish maqsadida, jumladan, xorijiy va mahalliy ekspertlarni jalb qilish;

Respublika agroxizmatlar markazi va uning hududiy bo‘linmalari xodimlari faoliyati natijalari asosida ularni moddiy rag‘batlantirish tartibi, miqdorlari va shartlarini belgilash;

Respublika agroxizmatlar markazi vakolatiga kiruvchi masalalarni ko‘rib chiqishda Milliy markaz, shuningdek davlat organlari va tashkilotlarining hay’at majlislarida ishtirok etish;

byudjetdan tashqari mablag‘lari, Respublika agroxizmatlar markazining depozit hisobvaraqlarida joylashgan mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit hisobvaraqlarida milliy va xorijiy valyutada joylashtirish, olingan daromadlardan qonunchilikda belgilangan tartibda mustaqil foydalanish;

Respublika agroxizmatlar markazi faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tegishli tuzilmalarni tashkil etish, ularni qayta tashkil etish va tugatish, shuningdek, ularning ustavlarini Milliy markazga tasdiq uchun kiritish.

Respublika agroxizmatlar markazi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

2-§. Respublika agroxizmatlar markazi ma’muriyatining huquqlari va javobgarligi

13. Respublika agroxizmatlar markazi ma’muriyatining o‘ziga yuklangan asosiy vazifalarni amalga oshirish va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

Respublika agroxizmatlar markazi tizimidagi bo‘linmalar va Hududiy agroxizmatlar markazlari rahbarlariga tezkor hal qilinishi talab etiladigan va markazga yuklangan vazifalar hamda funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan belgilangan tartibda topshiriqlar berish;

Respublika agroxizmatlar markazi ma’muriyatida ko‘rib chiqiladigan axborot va tahliliy materiallar, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda zarur bo‘lganda ekspert va ishchi guruhlarni tashkil etish;

Respublika agroxizmatlar markazi tizimidagi bo‘linmalar va Hududiy agroxizmatlar markazlarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari, Milliy markaz rahbariyati topshiriqlari bajarilishiga oid faoliyatini o‘rganish;

Respublika agroxizmatlar markaziga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot, loyihalash tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni shartnoma asosida jalb etish;

Respublika agroxizmatlar markazi vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va xo‘jalik birlashmalariga ko‘rib chiqishi uchun takliflar kiritish;

Respublika agroxizmatlar markazi ma’muriyati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘ladi.

14. Respublika agroxizmatlar markazi ma’muriyati:

Respublika agroxizmatlar markazi tizimidagi bo‘linmalar va Hududiy agroxizmatlar markazlari bilan birgalikda Respublika agroxizmatlar markaziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash;

qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalarni rivojlantirishning rejalari, prognoz va joriy ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha Respublika agroxizmatlar markazi bo‘linmalari va Hududiy agroxizmatlar markazlari faoliyatini tashkil etish;

Respublika agroxizmatlar markazi ma’muriyati, bo‘linmalari tomonidan dasturlar, chora-tadbirlar rejalari, “Yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlar amalga oshirilishini tashkil etish;

5-bob. Respublika agroxizmatlar markazi rahbariyatining asosiy funksional vazifalari

15. Quyidagilar Respublika agroxizmatlar markaz direktorining (keyingi o‘rinlarda direktor) asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

qishloq xo‘jaligida bilim, innovatsiyalar va agroxizmatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilish;

Respublika agroxizmatlar markazi va umuman agroxizmatlar tizimi faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qishloq xo‘jaligi vazirligining buyruqlari (qarorlari) va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan Respublika agroxizmatlar markaziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

direktor o‘rinbosarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish bo‘yicha Milliy markazga tavsiya etish;

o‘z o‘rinbosari va Respublika agroxizmatlar markazi hamda Hududiy agroxizmatlar markazlarining mansabdor shaxslari vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, Respublika agroxizmatlar markazi faoliyati hamda Hududiy agroxizmatlar markazlarining alohida uchastkalariga rahbarlik qilish uchun o‘z o‘rinbosari va mansabdor shaxslarning shaxsiy mas’uliyati darajasini belgilash;

Respublika agroxizmatlar markazi faoliyatini, qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tarmog‘ini rivojlantirish tendensiyalaridan kelib chiqib Respublika agroxizmatlar markazi va o‘z o‘rinbosarining ish rejalarini tasdiqlash va ularning bajarilishi nazoratini ta’minlash;

Respublika agroxizmatlar markazining hududiy agroxizmatlar markazlari direktorlarini lavozimga tayinlash va ozod etish bo‘yicha Milliy markaz Bosh direktoriga takliflar berish, hududiy agroxizmatlar markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

Respublika agroxizmatlar markazida va umuman agroxizmatlar tizimida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, Respublika agroxizmatlar markazining kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Respublika agroxizmatlar markazi va uning hududiy bo‘linmalari xodimlarini tizimli ravishda qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

Respublika agroxizmatlar markaziga kadrlarni professional kompetentligi o‘ziga yuklatilgan funksional vazifalarni bajarish uchun yetarli bilim, malaka va tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlari hamda ma’naviy-axloqiy fazilatlari asosida ishga qabul qilish;

o‘z o‘rinbosarining faoliyati natijadorligi va samaradorligini tizimli ravishda tanqidiy o‘rganish, uning shaxsiy hisobotlarini eshitish, hisobotlar yakunlari bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;

Respublika agroxizmatlar markazi va agroxizmatlar tizimi xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, o‘z o‘rinbosarini va boshqa mansabdor shaxslarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishga doir samarali ishlarni tashkil etish, aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, qonunchilikda belgilangan muddat va tartibda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

Respublika agroxizmatlar markazi tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomni, tizim xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari, hududiy agroxizmatlar shtat jadvallarini shuningdek, Respublika agroxizmatlar markazining boshqa ichki hujjatlarini belgilangan tartibda tasdiqlash;

Respublika agroxizmatlar markazi ma’muriyati xodimlarini, hududiy agroxizmatlar markazlari rahbarlaridan boshqa barcha xodimlarni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish;

Respublika agroxizmatlar markazi, uning hududiy bo‘linmalari mansabdor shaxslari va xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqarish va ko‘rsatmalar berish, shuningdek, ularning ijrosini belgilangan tartibda nazorat qilish;

Respublika agroxizmatlar markazining ma’muriyati, uning hududiy bo‘linmalari xodimlarining belgilangan umumiy cheklangan soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflarni Milliy markazga kiritish;

Respublika agroxizmatlar markazi faoliyatiga oid sohalarda xalqaro va hukumatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish bo‘yicha xalqaro tadbirlarda ishtirok etish.

16. Quyidagilar direktor o‘rinbosarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

Direktor vaqtincha bo‘lmaganda direktorning buyrug‘i asosida uning vazifalarini bajarish;

Respublika agroxizmatlar markazi ma'muriyati va hududiy agroxizmatlar markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va ularga bevosita rahbarlik qilish, ularning xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

Hududiy agroxizmatlar markazlari tomonidan prognoz ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlash tadbirlarini tashkil qilish, bo'linmalar rahbarlarining hisobotlarini eshitish va ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirish;

Hududiy agroxizmatlar markazlari ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

Qishloq xo'jaligi vazirligi hay'ati, Milliy markaz va direktorning buyruqlari (qarorlari) va topshiriqlari o'z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta'minlash;

Hududiy agroxizmatlar markazlari kadrlarini professionalligi, o'z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma'naviy-axloqiy fazilatlari asosida tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha Respublika agroxizmatlar markazi direktoriga takliflar kiritish, kadrlar zaxirasini shakllantirish yuzasidan tavsiyalar kiritish;

Respublika agroxizmatlar markaziga taqdim etilgan takliflar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'liq va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash;

Respublika agroxizmatlar markazi ma'muriyati, hududiy agroxizmatlar markazlari rahbarlari va xodimlari faoliyati samaradorligi va natijadorligini muntazam tanqidiy tahlil qilish, ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish;

Respublika agroxizmatlar markazi faoliyatini takomillashtirishga doir amaliy chora-tadbirlar ko'rish hamda ushbu sohalardagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularni direktorga kiritish;

Hududiy agroxizmatlar markazlari rahbarlari va xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimidan ozod etish yuzasidan takliflarni direktorga kiritish;

qonunchilikda belgilangan muddat va tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha samarali ishlarni tashkil etish.

17. Quyidagilar Respublika agroxizmatlar markazi ma'muriyati xodimlari hamda hududiy agroxizmatlar markazlari rahbarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish;

hududiy agroxizmatlar markazlari faoliyatiga rahbarlik qilish, bo'linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishini muntazam tahlil qilish hamda ushbu ko'rsatkichlarga erishishini ta'minlashga qaratilgan choralar ko'rish bo'yicha takliflarni Respublika agroxizmatlar markazi rahbariyatiga kiritish;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi hay’ati qarorlari, Milliy markaz va Respublika agroxizmatlar markazi buyruqlari, farmoyishlari va topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

hududiy agroxizmatlar markazlari ish rejalarini ishlab chiqish, ularni tasdiqlash uchun kiritish, ularda ko‘rsatilgan vazifalar va tadbirlar o‘z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta’minlash;

hududiy agroxizmatlar markazlari faoliyati sohalariga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va ularni ko‘rib chiqish uchun Respublika agroxizmatlar markazi rahbariyatiga kiritish;

hududiy va tuman agroxizmatlar markazlari kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yishda direktorga taklif kiritish, ularning kasb malakasini oshirish choralarini ko‘rish;

hududiy agroxizmatlar markazlari xodimlari faoliyati natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish va xolisona baholash, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, hisobotlar yakunlari bo‘yicha ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish yoxud shaxsiy mas’uliyati va javobgarligini kuchaytirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko‘rish;

qonunchilikda belgilangan muddat va tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, tegishli asoslantirilgan javoblar tayyorlash;

hududiy agroxizmatlar markazlari xodimlari tomonidan ko‘rsatilayotgan agroxizmatlar sifatini oshirish, takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi sohasidagi tadbirkorlar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash, innovatsiyalarni sohaga joriy qilish, maslahat xizmatlarini ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish choralarini ko‘rish;

18. Respublika agroxizmatlar markazi va hududiy agroxizmatlar markazi xodimlarining asosiy funksional vazifalari direktor tomonidan tasdiqlanadi.

Respublika agroxizmatlar markazi va hududiy agroxizmatlar markazi xodimlariga qo‘yiladigan asosiy malaka talablari:

- Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari bo‘yicha oliy ma’lumotga (mutaxassislik yoki magistratura, tumanlarda bakalavr darajasidagi xodimlarga ishlashga ruxsat etiladi) ega bo‘lish;

- o‘z ixtisosligi bo‘yicha kamida 3 yillik mehnat stajiga ega bo‘lish;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan erkin foydalana bilish;

- yozma va og‘zaki nutq ravon bo‘lishi, savodxonlik, jamoa, video kamera va mikrofon oldida erkin so‘zlash va o‘z fikrlarini to‘liq bayon etish qobiliyatiga ega bo‘lish;

- tavsiya va maslahat shaklidagi matnlarni tayyorlash salohiyati, muomala, munozara va notiqlik madaniyatiga ega bo‘lish;

- ilg‘or xorijiy va mahalliy tajriba, zamonaviy texnologiyalar, fan yutuqlarini bosma nashrlar, ommaviy-axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘rganish, ularni targ‘ib va joriy qilish qobiliyatlariga ega bo‘lish;

- tuproqshunoslik va agrokimyo, ekinlar seleksiyasi va urug‘chiligi, yetishtirish agrotexnologiyalari, agrotexnik tadbirlarning muddatlari va me’yorlari, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash borasida zarur bilim, malaka va tajribaga egaligi;

- qishloq xo‘jaligi texnikalari, mashina va agregatlaridan samarali foydalana olish bo‘yicha bilim, malaka va tajribaga egaligi;

- resurstejamkor texnologiyalar to‘g‘risidagi bilimlar va ulardan samarali foydalana olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

6-bob. Respublika agroxizmatlar markazi rahbarining javobgarligi

19. Direktor:

Respublika agroxizmatlar markaziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun;

Ushbu Ustavning 14-bandida nazarda tutilgan javobgarlik sohalari bo‘yicha;

Ushbu Ustavning 15-bandida ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

20. Direktorning o‘rinbosari:

Respublika agroxizmatlar markazining o‘zi nazorat qiladigan tarkibiy bo‘linmalarida Respublika agroxizmatlar markaziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun;

Ushbu Ustavning 16-bandida ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

21. Respublika agroxizmatlar markazi hududiy bo‘linmalari rahbarlari:

Hududiy agroxizmatlar markazlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarning amalga oshirilishi uchun;

Ushbu Ustavning 17-bandida nazarda tutilgan Respublika agroxizmatlar markazi ma’muriyati tomonidan berilgan topshiriqlarn bajarilishiga javobgar;

Ushbu Ustavning 18-bandida ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

22. Respublika agroxizmatlar markazi tumanlardagi agroxizmat markazlari xodimlarining javobgarligi direktor tomonidan tasdiqlanadi.

7-bob. Respublika agroxizmatlar markazi faoliyatini tashkil etish.

Respublika agroxizmatlar markazi rahbariyati:

23. Respublika agroxizmatlar markaziga Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan-direktor rahbarlik qiladi.

24. Direktor Milliy markaz tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan bir nafar o‘rinbosarga ega bo‘ladi.

Respublika agroxizmatlar markazi direktorining tavsiyasiga asosan, Milliy markaz Bosh direktori tomonidan hududiy agroxizmatlar markazlari rahbarlari lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

Hududiy agroxizmatlar markazi direktor o‘rinbosari va tuman agroxizmatlar markazi xodimlarini hududiy agroxizmatlar markazi direktori tavsiyasiga asosan, Respublika agroxizmatlar markazi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

25. Direktor bo‘lmagan vaqtda uning vakolatlari direktorning buyrug‘i bilan uning o‘rinbosariga yuklatiladi.

8-bob. Respublika agroxizmatlar markazi faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta’minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish, ularni ijtimoiy himoya qilish

26. Respublika agroxizmatlar markazi ma’muriyati va tizim tashkilotlari xodimlari ish haqi lavozim maoshi, ilmiy darajalar, ish staji uchun ustama haqlar, davlat, milliy va kasb bayramlari kunlari uchun mukofotlar, qo‘shimcha haqlar, ustamalardan, rag‘batlantirish to‘lovlaridan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlardan iborat.

27. Respublika agroxizmatlar markazi ma’muriyati xodimlariga Milliy markaz markaziy apparati uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlari mos ravishda qo‘llaniladi.

28. Hududiy va tuman agroxizmatlar markazlari xodimlariga viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlari mos ravishda qo‘llaniladi.

29. Respublika agroxizmatlar markazi O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari, belgilangan tartibda jalb etiladigan byudjetdan tashqari mablag‘lar, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari va xorijiy tashkilotlarning grantlari, bo‘sh turgan byudjetdan tashqari mablag‘larni belgilangan tartibda tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan olinadigan daromadlar hamda qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

9-bob. Respublika agroxizmatlar markazining hisobot berishi

30. Direktor Respublika agroxizmatlar markazi faoliyati bo‘yicha Milliy markazga hisobot beradi.

31. Milliy markaz Respublika agroxizmatlar markazi rahbariyatiga yuklangan vazifalar samarali bajarilishi uchun ularning faoliyati ustidan muntazam monitoring olib boradi, Respublika agroxizmatlar markazi faoliyati samaradorligiga xolisona baho beradi.

32. Monitoring va baholash yakunlari bo‘yicha Respublika agroxizmatlar markazining alohida o‘rnak ko‘rsatgan rahbarlari, mansabdor shaxslari va xodimlari rag‘batlantiriladi yoki yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar uchun intizomiy javobgarlikka tortiladi.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

33. Respublika agroxizmatlar markazi faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

34. Mazkur Ustav talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023 yil “28” 08 dagi 162-son buyrug‘iga
8-ilova

Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi Respublika agroxizmatlar markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy agroxizmatlar markazlari to‘g‘risidagi NAMUNAVIY USTAVI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi huzuridagi Respublika agroxizmatlar markazi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar hududiy agroxizmatlar markazining (keyingi o‘rinlarda - hududiy agroxizmatlar markazi) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligini, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va mas’uliyatini belgilaydi.

2. Hududiy agroxizmatlar markazi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida ta’lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi sub’ektlariga zamonaviy agroxizmatlar ko‘rsatishning uzviy tizimini ta’minlovchi filial maqomidagi davlat muassasasi hisoblanadi va o‘z faoliyatida bevosita O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi Respublika agroxizmatlar markaziga (keyingi o‘rinlarda – Respublika agroxizmatlar markazi) bo‘ysunadi.

3. Hududiy agroxizmatlar markazi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Ustavga va boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va uning huzuridagi Respublika agroxizmatlar markazining buyruqlariga (qarorlari) amal qiladi.

4. Hududiy agroxizmatlar markazi o‘z faoliyatini davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari, xorijiy va xalqaro hamda nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshiradi.

5. Hududiy agroxizmatlar markazi filial maqomidagi yuridik shaxs hisoblanadi.

6. Hududiy agroxizmatlar markazining rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi – Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi huzuridagi Respublika agroxizmatlar markazining Hududiy agroxizmatlar markazi, qisqartirilgan nomi – Hududiy agroxizmatlar markazi;

b) rus tilida:

to‘liq nomi – Regionalnыy sentr agrouslug Respublikanskogo sentra agrouslug pri Natsionalnom sentre znaniy i innovatsiy v selskom xozyaystve, qisqartirilgan nomi – Regionalnыy sentr agrouslug;

v) ingliz tilida:

to‘liq nomi – Regional center for Agricultural Services under the Republican center for Agricultural Services under the National center for knowledge and innovations in agriculture, qisqartirilgan nomi - Regional center for Agricultural Services.

7. Hududiy agroxizmatlar markazi joylashgan joy (pochta manzili va indeksi):

2-bob. Hududiy agroxizmatlar markazining tuzilmasi

8. Hududiy agroxizmatlar markazi tizimiga quyidagilar kiradi:

Hududiy agroxizmatlar markazi direktori va direktor o‘rinbosari-maslahatchilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi;

Hududiy agroxizmatlar markazining tuman agroxizmatlar markazlari (keyingi o‘rinlarda – tuman agroxizmatlar markazlari) xodimlari.

9. Hududiy agroxizmatlar markazi va uning tumanlardagi agroxizmatlar markazlari alohida yuridik shaxs hisoblanmaydi, ulardagi mutaxassis xodimlar joylarda qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tizim tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va “Agrobank” ATBning tadbirkorlik sub’ektlari bilan birgalikda tashkil etilgan “Agromarkaz”lar bilan hamkorlikda Hududiy agroxizmatlar markazining tegishli funksiyalarini amalga oshiradi.

3-bob. Hududiy agroxizmatlar markazining asosiy vazifalari va funksiyalari

10. Quyidagilar Hududiy agroxizmatlar markazining asosiy vazifalari hisoblanadi:

qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi (AKIS) konsepsiyasini amalga oshirish;

yangi ilmiy ishlanmalar, innovatsiyalar hamda raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish;

Milliy markaz tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda qishloq xo‘jaligi tadbirkorlik sub’ektlariga hududlarda agro maslahat xizmatlarini ko‘rsatish, seminar-treninglar tashkil etish, ilmiy asoslangan tavsiya va xulosalarni berish;

qishloq xo‘jaligida davlat va xususiy sektorni keng jalb etgan holda bilim, malaka va ko‘nikmalarning samarali almashinuvi hamda uzatilishini ta’minlaydigan milliy axborot va maslahat xizmatlari tarmog‘ini rivojlantirish;

xududlardagi agromaslahat resurslarini muvofiqlashtirish va boshqarish;

"Agrobank" ATBning hududiy bo‘limlari bilan birgalikda hududlardagi Agromarkazlar orqali mavjud infrastrukturadan unumli foydalangan holda integratsiyalashgan agromaslahat xizmatlarini tashkil etish;

barcha hududlardagi dehqon va fermer xo‘jaliklarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan agromaslahat xizmatlarini ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish;

Agroxizmatlarning tumanlardagi xodimlarini tanlash, malakasini oshirish va faoliyatini muvofiqlashtirish;

mahalliy ekspertlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, joylarda maslahat va trening o‘quv-kurslarini tashkil etish;

dala tajribalarini fermerlarga va tomorqa yer egalariga joyida namoyish etish hamda yangi texnologiya va vositalarni targ‘ib etish;

Innovatsion texnologiyalarni o‘z vaqtida va sifatli taqdim etilishini ta’minlash uchun hududlarda seminarlar tashkil etish, xorijiy va mahalliy ekspertlarni jalb etishga ko‘maklashish;

tuman darajasida xizmatlar ko‘rsatishni boshqarish va nazorat qilish, ularning samarali monitoringini, baholashni, foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini va xizmatlarni doimiy ravishda yaxshilashni o‘rganishni ta’minlash.

4-bob. Hududiy agroxizmatlar markazi va uning tuman markazlarining huquqlari hamda javobgarligi

11. Hududiy agroxizmatlar markazi o‘ziga yuklangan asosiy vazifalarni amalga oshirish va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

vakolatli organlarga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, Hududiy agroxizmatlar markaziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa hujjatlarni kiritish;

ko‘rgazmali va dala seminarlari o‘tkazish hamda boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan shunday tadbirlarda ishtirok etish, metodik materiallar va ilmiy tavsiyalarni qishloq xo‘jaligi tadbirkorlik sub’ektlariga yetkazish;

boshqa davlat organlari va mansabdor shaxslar bilan Hududiy agroxizmatlar markaziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va axborotlar almashish;

Hududiy agroxizmatlar markazi vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘rganishda axborot-tahliliy materiallar tayyorlashda Respublika agroxizmatlar markazi va tegishli idoralar vakillarini jalb etish;

Hududiy va tuman agroxizmatlar markazining xodimlarining ichki nazorat, korrupsion huquqbuzarliklar va qonunlarga zid boshqa harakatlar, shuningdek, markaz tizimi xodimlari tomonidan kasbiy axloq qoidalari buzilishining oldini olish;

Hududiy agroxizmatlar markazi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

12. Hududiy agroxizmatlar markazining o‘ziga yuklangan asosiy vazifalarni amalga oshirish va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

tegishli ma’lumotlar bazalaridan, davlat axborot tizimlaridan va vakolatli organlar resurslaridan belgilangan tartibda foydalanish;

Hududiy agroxizmatlar markazi tuman agroxizmatlar markazlariga tezkor hal qilinishi talab etiladigan va markazga yuklangan vazifalar hamda funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan belgilangan tartibda topshiriqlar berish;

Hududiy agroxizmatlar markazi xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

13. Hududiy agroxizmatlar markazi o‘z faoliyati sohasini rivojlantirish bo‘yicha tegishli barcha me’yoriy xujjatlar, “Yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali amalga oshirilishi bo‘yicha javobgar hisoblanadi;

5-bob. Hududiy agroxizmatlar markazi direktorining asosiy funksional vazifalari

14. Quyidagilar Hududiy agroxizmatlar markazi direktorining (keyingi o‘rinlarda direktor) asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar sohasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilish;

Hududiy agroxizmatlar markazi faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Milliy markaz va Respublika agroxizmatlar markazining buyruqlari (qarorlari) va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

Markazning boshqa xodimlari vakolatlarini Respublika agroxizmatlar markazi bilan kelishilgan holda belgilash, ular o‘rtasida tezkor vazifalarni taqsimlash hamda shaxsiy mas’uliyat darajasini oshirish;

Hududiy agroxizmatlar markazi faoliyatini, qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tarmog‘ini rivojlantirish tendensiyalaridan kelib chiqib xududiy va tuman agroxizmatlar markazlarining ish rejalarini bajarilishi nazoratini ta’minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishga doir samarali ishlarni tashkil etish, aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, qonunchilikda belgilangan muddat va tartibda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

Hududiy agroxizmatlar markazi faoliyatiga oid sohalarda xalqaro va hukumatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish bo‘yicha xalqaro tadbirlarda ishtirok etish.

15. Quyidagilar Hududiy agroxizmatlar markazi direktor o‘rinbosarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish;

Tuman agroxizmatlar xodimlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini ta’minlash;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi hay’ati qarorlari, Milliy markaz va uning Respublika agroxizmatlar markazi buyruqlari, farmoyishlari va topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

Tuman agroxizmatlar markazlari ish rejalarini ishlab chiqish, ularni tasdiqlash uchun kiritish, ularda ko‘rsatilgan vazifalar va tadbirlar o‘z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta’minlash;

Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishda taklif kiritish, ularning kasb malakasini oshirish choralarini ko‘rish;

Sohaga tegishli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tumanlarda bajarilishini ta’minlashda amaliy yordam ko‘rsatish;

Xodimlar faoliyati natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, hisobotlar yakunlari bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rish;

Soha faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishga doir takliflarni Respublika agroxizmatlar markazi rahbariyatiga kiritish;

Qonunchilikda belgilangan muddat va tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, tegishli asoslantirilgan javoblar tayyorlash.

16. Respublika agroxizmatlar markazi xodimlarining asosiy funksional vazifalarini Milliy markazi Bosh direktori tomonidan Hududiy va tuman agroxizmatlar markazi xodimlarining asosiy funksional vazifalari Respublika agroxizmatlar markazi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

17. Respublika agroxizmatlar markazi va hududiy agroxizmatlar markazi xodimlariga qo‘yiladigan asosiy malaka talablari:

- Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari bo‘yicha oliy ma’lumotga (mutaxassislik yoki magistratura, tumanlarda bakalavr darajasidagi xodimlarga ishlashga ruxsat etiladi) ega bo‘lish;

- o‘z ixtisosligi bo‘yicha kamida 3 yillik mehnat stajiga ega bo‘lish;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan erkin foydalana bilish;

- yozma va og‘zaki nutq ravon bo‘lishi, savodxonlik, jamoa, video kamera va mikrofon oldida erkin so‘zlash va o‘z fikrlarini to‘liq bayon etish qobiliyatiga ega bo‘lish;

- tavsiya va maslahat shaklidagi matnlarni tayyorlash salohiyati, muomala, munozara va notiqlik madaniyatiga ega bo‘lish;

- ilg‘or xorijiy va mahalliy tajriba, zamonaviy texnologiyalar, fan yutuqlarini bosma nashrlar, ommaviy-axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘rganish, ularni targ‘ib va joriy qilish qobiliyatlariga ega bo‘lish;

- tuproqshunoslik va agrokimyo, ekinlar seleksiyasi va urug‘chiligi, yetishtirish agrotexnologiyalari, agrotexnik tadbirlarning muddatlari va me’yorlari, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash borasida zarur bilim, malaka va tajribaga egaligi;

- qishloq xo‘jaligi texnikalari, mashina va agregatlaridan samarali foydalana olish bo‘yicha bilim, malaka va tajribaga egaligi;

- resurstejamkor texnologiyalar to‘g‘risidagi bilimlar va ulardan samarali foydalana olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

6-bob. Hududiy agroxizmatlar markazi rahbarining javobgarligi

18. Direktor:

Hududiy agroxizmatlar markaziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun;

Ushbu Ustavning 11-bandida nazarda tutilgan javobgarlik sohalari bo‘yicha;

Ushbu Ustavning 14-bandida ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

19. Hududiy agroxizmatlar markazining tumanlardagi agroxizmat markazlari xodimlarining javobgarligi Respublika agroxizmatlar markazi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

7-bob. Hududiy agroxizmatlar markazi faoliyatini tashkil etish

Hududiy agroxizmatlar markazi rahbariyati

20. Hududiy agroxizmatlar markazi direktori Respublika agroxizmatlar markazi direktorining tavsiyasiga asosan, Milliy markaz Bosh direktori tomonidan vazirlik bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

8-bob. Hududiy agroxizmatlar markazi faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta’minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish, ularni ijtimoiy himoya qilish

21. Hududiy agroxizmatlar markazi direktori va uning o‘rinbosari hamda tuman agroxizmatlar markazlari xodimlari ish haqi lavozim maoshi, ilmiy darajalar, ish staji uchun ustama haqlar, davlat, milliy va kasb bayramlari kunlari uchun mukofotlar, qo‘shimcha haqlar, ustamalardan, rag‘batlantirish to‘lovlaridan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlardan iborat.

22. Hududiy va tuman agroxizmatlar markazlari xodimlariga viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlari mos ravishda qo‘llaniladi.

11-bob. Hududiy agroxizmatlar markazining hisobot berishi

23. Direktor Hududiy agroxizmatlar markazi faoliyati bo‘yicha Respublika agroxizmatlar markaziga hisobot beradi.

24. Respublika agroxizmatlar markazi Hududiy agroxizmatlar rahbariga yuklangan vazifalar samarali bajarilishi uchun ularning faoliyati ustidan muntazam monitoring olib boradi, Hududiy agroxizmatlar markazi faoliyati samaradorligiga xolisona baho beradi.

25. Monitoring va baholash yakunlari bo‘yicha Hududiy agroxizmatlar markazining alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlari rag‘batlantiriladi yoki yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar uchun intizomiy javobgarlikka tortiladi.

12-bob. Yakunlovchi qoidalar

26. Hududiy agroxizmatlar markazi faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

27. Mazkur Ustav talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023 yil “28” 08
162 son buyrug‘iga
9-ilova

Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining hududiy Agroxizmatlar markazlari balansidagi avtotransport vositalarini qayta taqsimoti

№	Tashkilot nomi	Soni	Xolati	Mavjud avtotransport nomi	Davlat raqami
1	Qishloq xo‘jaligi vazirligi	1	Soz	GAZ A65R33 60	10 158 DCA
2	Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi	1	Soz	EQUINOX-AT 3LT AWD MH	10 776 ZBA
		1	Soz	GAZ A65R33 60	10 178 DCA
3	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Agroxizmatlar markazi	1	Soz	Chevrolet 'Nexia-3	30 395 SAA
		1	Soz	GAZ A65R33 60	10 176 DCA
4	Andijon viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Soz	Chevrolet 'Nexia-3	40 514 PBA
		1	Soz	GAZ A65R33 60	10 183 DCA
5	Buxoro viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Soz	VOLKSWAGEN SADDY TRENDLINE	10 863 HCA
6	Jizzax viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Soz	Chevrolet 'Nexia-3	30 590 SAA
		1	Soz	GAZ A65R33 60	10 175 DCA
7	Navoiy viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Soz	Chevrolet 'Nexia-3	85 184 YAA
8	Namangan viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Soz	Chevrolet 'Nexia-3	40 476 PBA
9	Qashqadaryo viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Soz	Chevrolet 'Nexia-3	30 392 SAA
		1	Soz	GAZ A65R33 60	10 180 DCA
10	Samarqand viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Soz	Chevrolet 'Nexia-3	30 592 SAA
		1	Soz	GAZ A65R33 60	10 179 DCA
11	Surxondaryo viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Soz	VOLKSWAGEN SADDY TRENDLINE	10 864 HCA
		1	Soz	GAZ A65R33 60	10 174 DCA
12	Sirdaryo viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Soz	Chevrolet 'Nexia-3	40 462 PBA
13	Toshkent viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Soz	Toyota Land Cruiser	10 268 LCA
		1	Soz	SHEVROLET MALIBU 2	10 273 KCA
		1	Soz	VOLKSWAGEN SADDY TRENDLINE	10 862 HCA
		1	Soz	GAZ A65R33 60	10 182 DCA
14	Farg‘ona viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Soz	Chevrolet Nexia-3	40 513 PBA
		1	Ta’mirtalab	GAZ A65R33 60	10 159 DCA
15	Xorazm viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Soz	DAMAS	90 454 UAA
16	Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti	1	Soz	COBALT	10 212 HBA

№	Tashkilot nomi	Soni	Xolati	Mavjud avtotransport nomi	Davlat raqami
17	Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi	1	Soz	Spark Chevrolet	25 125 LAA
Jami			**28**		

Sotuvga chiqariladigan Atotransport vositalari

№	Tashkilot nomi	Soni	Rusumi	Davlat raqami	Ishlab chiqarilgan yili va xolati	Sotuv turi
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Agroxizmatlar markazi	1	Nexia Chevrolet	95 295 YAA	2007 Ta’mirtalab	E-AUKSION.UZ elektron savdo maydonchasi
2	Namangan viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Nexia Chevrolet	50 761 OAA	2008 Ta’mirtalab	
3	Sirdaryo viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Matiz Chevrolet	20 186 JAA	2009 Ta’mirtalab	
4	Toshkent viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Nexia Chevrolet	10 713 DCA	2009 Ta’mirtalab	
		1	DAMAS	10 648 VBA	2004 Nososz	
5	Xorazm viloyati Agroxizmatlar markazi	1	Nexia Chevrolet	90 968 EAA	1998 Soz	
6	Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi	1	DAMAS	30 362 DAA	1996 Nosoz	
Jami		**7**				